

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.A.Abduhamidova, O.M.Nazarov, X.N.Saminov	
Yerqalampir o'simligi bargalri efir moyining kimyoviy tarkibini o'rganish	5
P.K.Turdalieva, S.M.Qosimova	
Farg'ona xududida o'sadigan <i>Taraxacum officinale</i> Wigg. s.L. o'simligi tarkibida fenol birikmalari va bioelementlar miqdorini o'rganish.....	9
V.M.Nosirova V.U.Xo'jayev	
Asperugo procumbens o'simligi yer ustki qismining kul miqdori hamda makro va mikroelementlari tahlili	15
D.Sh.Shavkatova	
Yangilangan oltingugurtli betonning korroziyaga qarshi kuchi	19
D.G'.Urmonov, A.K.Salman, I.J.Jalolov A.A.Ibragimov	
<i>Limonium otolepis</i> yer ustki qismi geksan fraksiyasi gaz xromatografik-mass spektrometrik tahlili	29
M.Y.Ismoilov, M.Sh.Ermatova	
FNQIZ ishqoriy chiqindilar tarkibini tahlil qilish	33
G.K.Najmitdinova, D.A.Shodiyev, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev	
Mahalliy amarant navlaridagi biologik faol bo'yovchi moddalar miqdorini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish istiqbollari.....	44
M.R.Murtozaqulov, Y.S.Fayzullayev, S.X.Botirov, D.J.Bekchanov, M.G.Muhamediyev	
Tabiiy gazlarning nordon gazlardan tozalashda ishlatalgan metildietanolamin tarkibidagi termik barqaror tuzlarni ajratib olish	49
M.I.Karabayeva, D.S.Salixanova, S.R.Mirsalimova	
Temir asosida metall-organik adsorbentlar olishning samarali usullari	55
N.N.Dexkanova, G.V.Tollibaeva	
Uglerod oksisulfid molekulalarining nax seolitiga adsorbsiyasini mikrokalorimetrik.....	60
D.A.Shodiyev, G.K.Najmitdinova, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev	
Yangi amarant navlaridagi biologik faol moddalar va kimyoviy elementlarni o'rganish va maxsus oziq-ovqat qo'shimchasini yaratish istiqbollari	66
I.R.Askarov, O.Sh.Abdulloev M.M.Kholmatova	
Chemical composition and medicinal properties of fish and fish bones	72
A.P.Xujakulov, I.R.Asqarov, A.X.Islomov	
Yashil no'xat urug'i tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash.....	76
H.R.Rahimova, A.A.Ibragimov	
Phlomoides nuda o'simligining mikroelementlar tarkibi va vitaminlari	80
Z.Q.Axmedova, I.R.Asqarov, Sh.M.Kirgizov	
Study of antioxidant activity of a mixture prepared from <i>Tribulus macropterus</i> , <i>Taraxacum officinale</i> and <i>inula helenium</i>	85

BIOLOGIYA

B.M.Sheraliyev, S.Y.G'ułomov, I.I.Zokirov	
Kumushrang tobonbaliq <i>Carassius gibelio</i> (Bloch, 1782) dagi bosh deformatsiyasining birinchi qaydi.....	89
M.A.Axmadjonova, G.M.Zokirova	
Fabaceae oilasi vakillarida tarqalgan <i>Sitona cylindricollis</i> (Fahraeus, 1840) ning morphologiyasi va bioekologiyasi.....	96
M.M.Teshajonova, G.M.Zokirova	
Tibbiyot oliygohi talabalariga gistologiya fanini o'qitishning innovatsion usullari	101
I.A.Abdurazakova, A.E.Zaynabiddinov	
Kaliforniya qizil yomg'ir chuvalchangini O'zbekiston sharoitida har xil ozuqada parvarish qilish	112
K.P.Buriyeva, G.S.Mirzaeva, N.Z.Arabova	
Taxonomy and Morphology of species of the genus <i>Hippodamia</i> (Chevrolat in Dejean, 1837), common in the Kashkadarya region	120



UO'K: 581.192:582.736

**PHLOMOIDES NUDA O'SIMLIGINING MIKROELEMENTLAR TARKIBI VA
VITAMINLARI**

**КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ СОСТАВ ХИМИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ И ВИТАМИНЫ
РАСТЕНИЯ PHLOMOIDES NUDA**

**QUANTITATIVE COMPOSITION OF CHEMICAL ELEMENTS AND VITAMINS IN
PHLOMOIDES NUDA**

Rahimova Hilolakhan Rustamjonovna¹ 

Central Asian Medical University xalqaro tibbiyat universiteti,

"Kimyo va farmakologiya" kafedrasи assistenti

Ibragimov Alidjan Aminovich² 

²Farg'onan davlat universiteti ,kimyo fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Maqolada ICP-MS (induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya) usuli yordamida Phlomoides nuda o'simligining gullari, moyasi va barglaridagi 44 ta elementning miqdoriy tarkibi eksperimental ravishda aniqlangan natijalar keltirilgan. Tadqiqotda NEXION-2000 uskunasidan foydalaniildi. Gullar tarkibidagi asosiy miqdoriy komponentlar quyidagilardan iborat: kалий (K) – 9912,858 mg/kg, фосфор (P) – 934,078 mg/kg, магний (Mg) – 1704,564 mg/kg va kaltsiy (Ca) – 1578,431 mg/kg. Barg va poyalarda ham ushbu elementlar asosiy tarkibiy qismilar hisoblanadi, biroq kалий va natriy miqdoriy moyada 4-5 baravar ko'proq ekanligi aniqlandi. O'simlik xomashyosi tarkibidagi vitaminlar miqdori YuSSX (HPLC) usuli bilan aniqlangan bo'lib, asosiy miqdoriy komponent askorbin kislotosi (1,524 mg/g) ekani hamda B guruhiga vitaminlaridan eng ko'p tiamin (1,877 mg/g) ekanligi ko'rsatildi.

Аннотация

В статье представлены результаты экспериментального определения количественного состава 44 элементов в цветках, стеблях и листьях растения Phlomoides nuda с использованием метода индуктивно связанной плазменной масс-спектрометрии (ICP-MS). В исследовании использовалось оборудование NEXION-2000. Основные количественные компоненты цветков включают: калий (K) – 9912,858 мг/кг, фосфор (P) – 934,078 мг/кг, магний (Mg) – 1704,564 мг/кг и кальций (Ca) – 1578,431 мг/кг. Эти элементы также являются основными компонентами в листьях и стеблях, однако концентрация калия и натрия в стебле в 4-5 раз выше. Количество витаминов в растительном сырье определялось методом ВЭЖХ (HPLC). Установлено, что основным количественным компонентом является аскорбиновая кислота (1,524 мг/г), а среди витаминов группы В в наибольшем количестве содержится тиамин (1,877 мг/г).

Abstract

The article presents the results of an experimental determination of the quantitative composition of 44 elements in the flowers, stems, and leaves of the Phlomoides nuda plant using the inductively coupled plasma mass spectrometry (ICP-MS) method. The NEXION-2000 equipment was used in the study. The main quantitative components in flowers include: potassium (K) – 9912.858 mg/kg, phosphorus (P) – 934.078 mg/kg, magnesium (Mg) – 1704.564 mg/kg, and calcium (Ca) – 1578.431 mg/kg. These elements are also the main components in leaves and stems; however, potassium and sodium concentrations are 4-5 times higher in the stem. The vitamin content in plant raw materials was determined using the HPLC method. The results showed that ascorbic acid (1.524 mg/g) is the main quantitative component, while among B-group vitamins, thiamine (1.877 mg/g) was found in the highest amount.

Kalit so'zlar: Phlomoides nuda, makro va mikroelementlar, vitaminlar, YuSSX (HPLC) xromatografiya, induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya (ICP-MS)

Ключевые слова: Phlomoides nuda, макро- и микроэлементы, витамины, ВЭЖХ (HPLC) хроматография, масс-спектрометрия ИСП-МС (ICP-MS)

Key words: Phlomoides nuda, macro- and microelements, vitamins, HPLC chromatography, inductively coupled plasma mass spectrometry (ICP-MS)

KIMYO

Kirish

Insoniyat qadim zamonalardan boshlab tabiat in'omlari hisoblangan o'simliklar dunyosidan o'z maqsadlari uchun foydalanim kelganlar .Bularni ba'zilari oziq-ovqat manbalari hisoblansa,ayrimlari tibbiy maqsadlar uchun ishlatalgan

Lamiaceae oilasiga mansub o'simliklar Farg'ona mintaqasida keng tarqalgan bo'lib ular ko'pdan beri xalq tabobatida qo'llaniladi. Farg'onaning boy florasi tabobatda qo'llash uchun keng imkoniyatlarga ega. Yovvoyi xolda o'suvchi o'simliklardan tashqari bir nechta "Mehrigiyo" kabi madaniylashtirilgan dorivor o'simliklarni yetishtirish bilan shug'ullanadigan tashkilotlari mavjud.Yovvoyi turdag'i o'simliklarni ko'paytirib, ularni qiyosiy solishtirib tarkibidagi biologik faol moddalar o'zgarmayotganligini aniqlab, sun'iy ko'paytirilgan o'simlik xomashyosidan oqilona foydalinish mumkin bo'ladi. Bugungi kunda rivojlangan Yaponiya kabi davlatlarda dorixonalarda sotiladigan preparatlarning asosiy qismini o'simliklardan olinadigan dorivor maxsulotlar tashkil etadi. Demak, tanlangan o'simlik turkumlari hamda ular uchun adabiyotda keltirilgan fiziologik faolligi bizning mintaqada ham namoyon bo'lishi yoki malum darajada o'zgarishi xam mumkin. Bundan xulosa chiqarib aytish mumkinki tanlangan mavzu dolzarbliyu yuqori.

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda nafaqat O'zbekiston, balki Farg'ona vodiysida tarqalgan Phlomoides Moench turlarining taksonomiysi, geografiyasi, ekologiyasi va muhofazasi, kimyoviy tarkibini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar ko'lami [1]. Xususan, Farg'ona vodiysida tarqalgan Phlomoides nuda In vitro eksperimentda preparatning gepatoprotektiv ta'siri borligi, konsentratsiyaga bog'liq holda membranani tiklashga ta'sir qilishi va uning tarkibida gepatit B va gipertenziyaning oldini olish qobiliyatiga ega biologik faol moddalar mavjudligi isbotlangan[2].

Bundan tashqari, birinchi marta Phlomoides nuda o'simligidan biologik faol modda sifatida b-sitosterol ajratib olindi va turning flavonoidlariga xos sifat reaksiyasi o'tkazildi [3].

O'simlik xalq tabobatida pnevmoniya, bronxit, sariqlik, gemorroy uchun biriktiruvchi, yaralarni davolovchi va tonik sifatida ishlatalgan. O'simlik ekstraktlari va undan individual birikmalar yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega.O'simliklarning ko'p turlari tibbiyotda nafaqat asosiy biologik faol moddalar tarkibiga, balki ularning elementar tarkibiga ko'ra ham qo'llaniladi. Immunitet mexanizmlarining normal ishlashi uchun ma'lum darajada rux, selen, litiy, mis, marganets, temir va kobalt zarurligi aniqlandi [1-3].

Phlomoides canescens o'simligidan turli polisaxaridlar ajratilgan: spirtda eriydigan saxaridlar, suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalar, gemitsellyulozalar [4].

Phlomoides canescens gullari va barglari qismlarini o'rganishda 29 ta birikma aniqlandi, ular efir moyining umumiyligi tarkibiy qismlarining 97,81% ni tashkil qiladi. Tarkibdagi asosiy komponentlar: trans- β -oksimen (3,04%), 5-metilbenzofurazan (5,74%), trans- β -farnesen (7,39%), 6,10,14-trimetilpentadekan-2-on (4,68%) , metil 8,11,14-geptadekatrienoat (9,00%) va tritetrakontan (4,29%) [5].

Saponinlar ildiz mevalaridan topilgan. Yer ustki qismida - alkaloidlar, iridoidlar, mikroelementlardan: temir, magniy, rux, mis, marganets, nikel, titan borligi aniqlangan [6, 7]. Ildizlarda kraxmal ko'p bo'ladi [8].Ilgari ular qandolatchilik, souslar va sutli bo'tqalar tayyorlash uchun ishlatalgan [9]. Gullari asalga boy bo'lgan o'simlikdir [10].

Bu tur Phlomoides oreophila bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tepada yulduz shaklidagi tuklar bilan barglari bilan ajralib turadi. Kimyoviy jihatdan kam o'rganilgan. Ushbu maqolada xom ashyoning kimyoviy tarkibi bo'yicha dastlabki tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Kulning miqdori muffelda kalsinatsiyadan oldin va keyin tigel massasi o'rtaсидagi farq bilan aniqlangan, dastlabki namunaga nisbatan foizda ifodalangan [11].

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Makro va mikroelementlarni aniqlash. Tajriba ISP MS NEXION-2000 induktiv bog'langan plazma massa spektrometrida o'tkazildi. Analistik tarozida tortilgan kulning 0,1 g qismlari DAP-100 teflon avtoklavlariga olindi va 30 ml konsentrangan nitrat kislota qo'shildi. Avtoklavlar yopildi va MWS-3+ dasturiga ega Berghoff mikroto'lqinli hazm qilish apparatiga joylashtirildi. Olingan shaffof eritmalar 100 ml hajmli o'lchov kolbalariga filtrlanadi va hajmi 0,5% nitrat kislotosi bilan belgisiga moslashtirildi. Shu tarzda tayyorlangan namunalar ko'p elementli standart (29 element), shuningdek simob (Hg) uchun standart yordamida tahlil qilindi.

Vitaminlar aniqlash tajribasi. Suvda eruvchan vitaminlar 1 mg/ml kontsentratsiyali ishchi eritmalari tayyorlandi. Buning uchun har bir vitamin standartidan analitik tarozida 50,0 mg aniq tortma tortib olindi va 50 ml o'lchagich kolbaga 40 foizli etanolda eritildi hamda standart holda to'ldirildi.

Ilmiy manbalarda suvda eruvchi vitaminlarni Yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasи bilan aniqlashda elyuent sifatida fosforli, atsetatli bufer sistemalari va atsetonitrildan foydalanilgan. Mazkur eksperiment tadqiqotlarni amalga oshirish davomida atsetatli bufer sistemasi hamda atsetonitrildan foydalanildi.

Xromotografiya sharoitlari:

- Xromotograf Agilent-1200 (avtodoxator bilan jihozlangan)
- Kolonka exlipse XDB C 18 , 5 mkm, 4,6 x150mm

- Diod matritsali detektor (DAD), 204 nm, 254 nm, 290 nm soxalarida identifikatsiya qilindi.

- Oqim tezligi 1ml/min

- Elyuent - atsetatli bufer: atsetonitril:

0-5 min 96:4, 6-8 min 90:10, 9-15 min 80:20, 15-17 min 96:4, termostat harorati 25°C - 5 mkl kiritilgan miqdor.

Xromotografga dastlab, ishchi standart eritmalar, keyinchalik tayyorlangan ishchi eritmalar kiritildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'simlik materiallarining gul, bargi va poyasidagi mikroelementlarning miqdori o'rganildi va taqqoslandi. Ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, indiy, reniy, germaniy dan tashqari barcha elementlar uchala o'simlik qismlarida bir biriga yaqin miqdorda mavjud. Miqdoriy jixatdan asosiy to'rt elementlar xam umuman olganda yaqin: K, Na, Mg, Ca, ammo natriy bargida uch marotaba ko'p; Kaliyni miqdori bargida guli va poyasiga nisbatan ancha ko'p. Shu bilan birga, gullarida va ayniqsa bargida kaly va kaltsiy ustunlik qiladi. Eng ko'p miqdor barcha elementlarga nisbatan kaly ko'proq. Umuman olganda, miqdoriy jihatdan o'simlikning eng katta tarkibiy qismlari kaltsiy, kaly, magniy va natriy, yani inson salomatligi uchun muhim elementlardir (jadval 1). Elementlarning yuqori tarkibidagi tebranishlar davriy jadvaldagи tartib raqami oltiga karrali elementlar uchun avval qayd etilgan naqshga bo'y sunadi [12-13].

1-Jadval

ISP MS usuli yordamida Phlomoides nuda organlaridagi mikro va makroelementlar miqdorini aniqlash natijalari, mg/kg.

№	Element	Miqdoriy tarkibi, mg/kg		
		bargi	Guli	Poyasi
1	Litiy, Li	1,004	0.285	0.141
2	Berilliyl, Be	0.005	0.002	0.004
3	Bor, B	9,638	8,992	5,184
4	Natriy, Na	1451,494	508,188	1713,381
5	Magniy, Mg	1870,112	1704,564	1551,732
6	Alyuminiy, Al	794,780	432,706	38,603
7	Kremniy, Si	450,740	296,394	25,231
8	Fosfor, P	624,166	934,078	529,915
9	Oltinugurt, S	277,003	85,273	655,624
10	Kaly, K	19232,564	9912,858	6000,518
11	Kaltsiy, Ca	2794,916	1578,431	2103,597
12	Titan, Ti	23,602	1057	21,870
13	Vanadiy, V	0.079	0,029	0,005
14	Xrom, Cr	0,268	0,251	0,142
15	Manganets, Mn	2,837	1,801	0,962
16	Temir, Fe	197,702	104,373	106,145
17	Kobalt, Co	0,038	0,017	0,016

KIMYO

18	Nikel, Ni	0,203	0,187	0,143
19	Mis, Cu	0,523	0,601	0,271
20	Rux, Zn	2,630	8,907	2,467
21	Galliy, Ga	0,126	0,107	0,104
22	Germaniy, Ge	0,000	0,000	0,000
23	Mishyak, As	0,014	0,007	0,003
24	Selen, Se	0,007	0,000	0,055
25	Rubidiy, Rb	0,107	0,101	0,058
26	Strontsiy, Sr	3,218	0,085	1,732
27	Sirkoniy, Zr	0,020	0,010	0,005
28	Niobiy, Nb	0,001	0,001	0,000
29	Molibden, Mo	0,159	0,235	0,231
30	Serebro, Ag	0,000	0,001	0,001
31	Kadmiy, Cd	0,001	0,003	0,004
32	Indiy, In	0,000	0,000	0,000
33	Qalay, Sn	0,065	0,030	0,051
34	Surma, Sb	0,000	0,000	0,001
35	Sezily, Cs	0,001	0,001	0,000
36	Bariy, Va	0,743	0,495	0,549
37	Tantal, Ta	0,001	0,001	0,001
38	Vol'fram, W	0,000	0,001	0,001
39	Reniy, Re	0,000	0,000	0,000
40	Simob, Hg	0,011	0,001	0,001
41	Tallyi, Tl	0,001	0,001	0,001
42	Qo'rg'oshin, Pb	0,010	0,011	0,020
43	Vismut, Bi	0,000	0,001	0,001
44	Uran, U	0,001	0,002	0,002

Vitaminlarning miqdoriy tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromotografiyası usulida aniqlandi Olingen natijalar 2-jadvalda keltirilgan. Suvda eriydigan vitaminlarni o'rganish shuni ko'ssatdiki, B guruh vitaminlarning qatorida eng katta miqdori tiamin (B1) hissasiga to'g'ri keladi. Uning miqdori 1,877 mg/gr ni tashkil etdi. Umuman olganda, Suvda eriydigan vitaminlarni orasida eng katta miqdor tarkibi (B₁) hissasiga to'g'ri keldi. Uning miqdori 1,877 mg/g ni tashkil etdi.

2-jadval

Phlomoides nuda o'simligining vitaminlari.

Vitaminlar	Ph. Nuda
	Kontsentratsiya mg/gr
B ₁	1,877
B ₂	0,019
B ₆	1,267
B ₉	0,628
PP	0,204
C	1,524

XULOSA

Shunday qilib, ishda *Phlomoides nuda* o'simligi xom ashyosining uchta o'simlik organidagi 44 elementning miqdoriy tarkibini aniqlash natijalari keltirilgan. Elementlarni taqsimlashning ma'lum qonuniyatları aniqlangan. Bundan tashqari, *Phlomoides nuda* o'simligining vitaminlar tarkibini o'rganilgan. Mazkur tahlillarni amalga oshirish, olingen natijalar hamda ajiratib olingen mikroelementlar, vitaminlar oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida turli ozuqa mahsulotlari va inson

salomatligi uchun foydali vitaminli preparatlar tayyorlash, ularni amaliyotga tadbiq etish dolzab ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gulomov R.K. Distribution of the genus *Phlomoides* Moench in the Fergana Valley (taxonomy, geography, ecology and conservation): author's abstract of scientific paper, PhD –Tashkent: 2022– 43 p.
2. Haydarova D., Siddikov G', Abdullaev Sh., Tojiboyev B. The Composition of the Essential Oil of the Plant *Phlomoides Nuda* Growing in Uzbekistan. // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. <http://ijmmu.com> ISSN 2364-5369 Volume 8, Issue 9 September, 2021 Pages: 396-400
3. Yulbarsova M., Khaydarova D.R., Siddikov G.U., Abdullaev Sh.V.. *Phlomoides nuda* as a source of β-sitosterol. Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine. Volume 1, Issue 4, 2022.
4. Rahimova, H.R (2021). Kompleks uglevodov *Phlomoides canescens* rasprostranen v Ferganskoy doline. *Aziatskiy jurnal mnogomernykh issledovanij*, 10 (10), 1154–1159.
5. H.Rahimova, A.Ibragimov *Phlomoides sanescens* o'simligining uchuvchan moddalarini tadqiq etish. FarDU. ILMIY XABARLAR.3-2022.289-293 bet.
6. Wild edible plants / Ed. acad. V.A.Keller; Acad-emy of Sciences of the USSR; Moscow nerd. garden and Ying t history mater. culture them. N. Ya. Marr. - M.: b.i., 1941, P. 25-40. [Published in Russian].
7. Rudnyanskaya E.I. Pollen productivity of someplants // Beekeeping: journal. - 1985. - No. 2. - P. 16. [Pub-lished in Russian].
8. D. N. Olennikov, N. K. Chirikova. *Phlomoides tuberosa* I and II, New Iridoid Glycosides from *Phlomoides tuberosa* (English) // Chemistry of Natural Compounds. -2017-3. - Vol. 53, iss. 2. - P. 269-272.
9. Adylov T.A., Makhmedov A.M. Genus *Phlomoides* Moench - Flomoides // Keys to plants of Central Asia. - Tashkent: Fan, 1987. – T. 9. P. 104-105.[Published in Russian].
10. Lazkov G.A. Genus *Phlomoides* (Lamiaceae)in Kirghizia // Komorovia. 2011. V. 7. P. 18.
11. Muzgin V.N., Emelyanova N.N., Pupyshev A.A. Inductively coupled plasma mass spectrometry- a new method in analytical chemistry // Analytics and Con-trol. 1998. No. 3-4. S. 3–25
12. П.Игамбердиева, А.Ибрагимов. Изучение распространения химических элементов в органах *Artemisia ferganensis* и *Artemisia annua* в зависимости от порядкового номера в периодической системе Д.И. Менделеева. Узбекский химический журнал. Ташкент. 2009. С. 35-39.\
13. П.Игамбердиева, А.Ибрагимов. Изучение химических компонентов *Artemisia ferganensis* (полынь ферганская). Материалы Научно-практической конференции“Актуальные проблемы школьного химического образования”, посвященная 42-ой Международной Менделеевской олимпиаде”. Ташкент, 2008. с.102-104.